

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



MUTAXASSISLIK FANLARI BO'YICHA MAGISTRATURAGA
KIRISH SINOVLARI DASTURI VA BAHOLASH MEZONI

5A120101 – Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti

mutaxassisligi uchun

Buxoro – 2021

Annotatsiya

Dastur 5A120101 – Adabiyotshunoslik: o’zbek adabiyoti magistratura mutaxassisligiga kiruvchilar uchun 5111400 – xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili ta’lim yo‘nalishining 2017/2018-o’quv yilida tasdiqlangan o’quv rejasidagi fanlar asosida tuzilgan.

Tuzuvchilar:

D.H.Quvvatova – BuxDU O’zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori, f.f.d.

Taqrizchilar:

M.B.Rajabova – BuxDU O’zbek tili va adabiyoti dotsenti, f.f.n.

Dastur Buxoro davlat universitetining 2021 yil 3 iyuldagi 19 sonli Kengashida ko’rib chiqilgan va maqullangan.

“ADABIYOT NAZARIYASI” fani bo’yicha:

KIRISH

Adabiyot nazariyasi fan sifatida. San’at – estetik hodisa. San’atning tabiatini va turlari. San’atda inson ruhiyati masalasi. Badiiy adabiyot san’atning bir turi sifatida. Adabiyot nazariyasining adabiyotshunoslik fani tarkibida tutgan o’rni; Adabiyot nazariyasining adabiyot tarixi, adabiy tanqid, adabiy manbashunoslik, adabiy jarayon, jahon adabiyoti, adabiyotshunoslik metodlari fanlari bilan aloqasi.

Adabiy-nazariy tafakkur taraqqiyoti tarixidan. Adabiyotshunoslik tarixiga umumiylar; adabiy-nazariy qarashlarning mumtoz Sharq adabiyotining takribiy qismi sifatida; mumtoz poetika asoslari; G’arb adabiy-nazariy tafakkurining yetakchi tamoyillari; adabiyot nazariyasi tarixida ilmiy atamalar masalasi.

Adabiyotning spetsifikasi. Adabiyot o’ziga xosligining asosiy belgilari; badiiy adabiyotning vazifasi xususida; badiiy adabiyotning insonshunoslik ekanligi; badiiy adabiyot va ijtimoiy hayotning o’zaro munosabati; adabiyotda insonning ichki olami tasviri; adabiyot va san’atda ruhiyat masalasi; inson histuyg’ulari va kechinmalarining badiiy tasviri.

Badiiy asar tarkibi. Badiiy asar tarkibiga xos xususiyatlar; adabiyotda shakl va mazmun uyg’unligi badiiylikning eng muhim mezoni sifatida; poetik shaklning o’zgarib borishi; shaklbozlik muammosi; badiiy asarning shakli va mazmuniga oid poetik unsurlar masalasi; badiiy syujet tizim sifatida; syujetning badiiy asar takribidagi poetik funksiyasi; badiiy asar kompozitsiyasi va uning elementlari.

Badiiy asarda mavzu va g’oya tasnifi. Tematologiya. Badiiy adabiyotdagi umrboqiy va o’tkinchi, tarixiy va zamonaviy mavzular masalasi; mavzuning mohiyati va dolzarbliji; badiiy asar mavzusi va iste’dod darajasi; mavzular tasnifiga doir; badiiy g’oya va ijtimoiy g’oyaning o’ziga xos qirralari; mavzushunoslik; mavzu, g’oya, obraz va estetik ideal munosabati.

Badiiy tafakkur va badiiy obraz. Badiiy asarda insonning murakkab dunyosi talqini; obrazlarning turli nuqtai nazardan tasniflari; obrazda umumiylilik va xususiylik; obraz va muallif munosabati; obraz va detal; obraz va so’z; obraz yaratish usullari; obraz, simvol, ramz xususida; badiiy obraz genezisi – maydonga kelish omillari xususida. Obraz va xronotop; syujet va obraz munosabati.

Poetik nutq xususida. Poetik nutq va badiiy asar tili masalasi. Poetik nutqqa xos alomatlar. Badiiy nutq tarkibi. Badiiy asar pafosi va nutq munosabati; Nasr va nazm. Muallif va qahramonlar nutqidagi individuallik; dialogik va monologik nutq. Poetik nutqda emotsiyallik; nasriy asar ritmi. Badiiy nutq mezoni.

Adabiy tur va janrlar poetikasi. Adabiy tur tushunchasi va uning tasnifi. Adabiy tur va janrlarning paydo bo’lish masalasi. Adabiy janrga xos belgilari. Epik tafakkur spetsifikasi. Lirika va insonning ruhiyati, his-tuyg’ulari. Siyosiy, intim, tabiat lirkasi xususida. Lirizm va dramatizm. Satira va yumor mustaqil ijod turi

sifatida. Dramatik asarlar va teatr san'ati. Adabiy tur va janrlardagi o'ziga xoslik hamda uyg'unlik. Tragikomediya.

Ijodiy metod va uslub. Ijodiy metod va adabiy oqimlar. Romantizm va uning turlari. Romantizmda orzu-umidlar yoki tasavvurlar aks etishi. Realizm va uning turlari. Realizm – haqqoniy tasvir. Modernizmning ichki oqimlari: ekzistentsializm, simvolizm, futurizm, surrealizm, postmodernizm va boshqalar. Jahan san'at tarixida oqim va metodlar ko'pligi. Uslub va ijodkor. Kinoyaviy uslubga xos belgilar. Badiiy uslub va badiiy til. Uslublar xilma-xilligi. Uslubdagi individuallik.

Ijod psixologiyasi va ijodkor laboratoriysi. Ijod psixologiyasi va ijodkor laboratoriyasiga manbalar; muallif "men"iga xos xususiyatlari; iste'dod ijodkorlikning bosh alomati; badiiy asar iste'dodli ijodkor poetik olamining mahsuli sifatida; ijodkorga xos ruhiy holatlar; badiiy asarning jamiyatga ta'siri; tarixiy-ijtimoiy hayotning badiiy asarda aks etishi.

Badiiy asarni qabul qilish va talqin etish yo'llari. Badiiy did masalasi; retsepsion estetikaning mohiyati xususida; badiiy asarni tushunish va tushuntirish yo'llari xususida; badiiy asarni kompleks tahlil etish usuli.

“O'ZBEK FOLKLORI” fani bo'yicha

Xalq og'zaki ijodining xalq, millat qadriyatları qatorida tutgan o'rni. Xalq og'zaki ijodining tarixi va taraqqiyot bosqichlari. O'zbek folklorining tarkibiy qismlari, janrlari, xalq ijodkorlari, folklorshunoslik faniga hissa qo'shgan olimlar. Respublika mustaqillikka erishganidan so'ng xalq og'zaki ijodiga va uni o'rganishga bo'lgan munosabatdagi ijobiy o'zgarishlar, ularning natijalari. Fan vazifalarining belgilanishi va ahamiyati.

Xalq og'zaki ijodi so'z san'ati sifatida. San'at inson tafakkur salohiyatining natijasi ekanligi. Mahorat va fikriy kashfiyot san'atning muhim belgilaridan biri xususida. Xalq og'zaki ijodi namunalari mahorat, aqliy (fikriy) kashfiyot namunalarining badiiy ifodasi.

Xalq afsonalari. Afsona, rivoyat, naql atamalari haqida ma'lumot. Ularning umumiy va o'ziga xos jihatlari. Afsona va rivoyatlar tasnifi. Insonparvarlik g'oyalari afsonalarning yaratilishida asos ekani. To'maris va Shiroq rivoyatlarida Vatan mavzusi.

Maqol va matallar. Maqol va uning janr xususiyatlari. Maqollarning badiiyati, obrazlilik, o'z va ko'chma ma'nolari. Maqollarning milliyligi va fikr ifodalashdagi uslubiy xususiyatlari. Maqollarning tasnif tamoyillari. Xalq maqollari va yozma adabiyot. Folklorizm haqida ma'lumot. Matal haqida ma'lumot. Matallarning maqollardan farqi. Matallar jonli va badiiy tilning uzviy qismi sifatida. Paremiologiya haqida ma'lumot.

Topishmoqlar. Topishmoq – paremik janr sifatida. Topishmoqlarning ma'rifiy, estetik va tarbiyaviy ahamiyati. Topishmoqlarning janr xususiyatlari. Topishmoq poetikasi (timsollar olami, syujet va kompozitsion jihatlar). Topishmoq

va chiston, muammo, ta`rix. An'anaviy topishmoqlarda xalq hayotining aks etishi. Topishmoqlarning badiiy xususiyatlari. Istiora haqida ma'lumot.

Askiya. Lof. Xalq dramasi. Askiya janrining o'ziga xos belgilari. Askiya – o'zbek xalqining milliy merosi sifatida. Askiyaning payrov, gulmisiz, o'xshatdim va boshqa turlari. So'z o'yinlarining askiyadagi ahamiyati. Askiyachilar haqida ma'lumot. Askiyachi ijodida omonim so'zlardan foydalanish mahorati. Iyhom haqida tushuncha. Loflar – askiyaga yaqin turuvchi janr sifatida. Mubolag'a va uning turlari haqida ma'lumot.

Xalq dramasi haqida ma'lumot. Xalq dramasining janr xususiyatlari. Xalq dramasida kompozitsion ixchamlik, syujetning tez rivojlanishi. Dramada satira va yumorning o'rni, ahamiyati. Xalq dramasida askiya va lof janrlarining belgilari. Satira va humor haqida ma'lumot.

Xalq qo'shiqlari. Xalq qo'shiqlari – xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan lirik janri sifatida. Qo'shiqlarning janr xususiyatlari. Xalq qo'shiqlarining ularda aks etgan his-to'yg'ular yo'naliishi bo'yicha tasnifi. Mehnat qo'shiqlari va ularning turlari. Marosim qo'shiqlarida xalq qadriyatları, rasm-rusumlari ifodasi. Lirik qo'shiqlar. Tarixiy qo'shiqlar. Xalq qo'shiqlarida milliylik. Qo'shiqlarning badiiy xususiyatlari. Qo'shiqlarning estetik tarbiyadagi o'rni. Qo'shiqlarda parallelizm, vazn, qofiya, badiiy til masalalari. Lirika haqida ma'lumot.

Xalq ertaklari. Ertak xalq og'zaki ijodining eng qadimiy ommaviy janrlaridan biri ekani. Ertak janrini anglatuvchi atamalar. Ertakda xalq hayoti, orzu-istaklari, psixologik dunyosining aks etishi. Xalq ertaklarining janr xususiyatlari. Ertaklarning mazmuniga ko'ra tasnifi. Hayvonlar haqidagi ertaklarda xalqning tabiat muhiti, mifologik dunyoqarash ildizlari haqidagi tasavvurlari ifodasi. "Susambil", "Ovchi, ko'kcha va dono", "Bo'ri bilan Tulki" ertaklarida mazmun va badiiyat. Sehrli ertaklarning hayot muammolari bilan munosabati. "Ur tuqmoq", "Mohistara", "Yoriltosh" ertaklari tahlili. Hayotiy maishiy ertaklarda ijtimoiy hayot muammolari ifodasi. Ularda do'stlik, mardlik, zakiylik, insonparvarlik kabi shaxs fazilatlarining ulug'lanishi. "Uch og'a-ini botirlar", "Malikai Husnobod", "Zolim podsho", "Ziyod botir" kabi ertaklar tahlili. Badiiy adabiyotdagi epik tur haqida ma'lumot.

Latifalar. Latifa xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan kichik nasriy janri sifatida. Latifalarning janr xususiyatlari. Sharq xalqlari latifalaridagi mushtaraklik. Nasriddin afandi timsoli. Nasriddin xalqning ideal qahramoni sifatida. Afandi obrazining yaratilishidagi ikki yo'naliish. Latifalarning badiiy qimmati. Ularning kompozitsion jihat. Latifalarning til xususiyatlari. Zamonaviy latifalarning ijtimoiy mazmuni.

Xalq dostonlari. Doston janri haqida ma'lumot. Doston – xalq og'zaki ijodining sinkretik janri sifatida. Dostonda badiiy matn (nazm va nasr) va musiqanining o'rni. Xalq baxshilari haqida ma'lumot. Xalq dostonlarining ijro an'anasisiga ko'ra (Samarqand, Xorazm, Farg'ona) turlari. Dostonlarning tasnifi (qahramonlik, romanik, tarixiy, kitobiy, jangnoma dostonlari) haqida ma'lumot.

Xalq dostonlarida turkumlik. "Alpomish" dostoni. "Alpomish" – qadimiy xalq qahramonlik eposi sifatida. Dostonning variant va versiyalari haqida ma'lumot. "Alpomish" dostoni haqida munozaralar tahlili. "Alpomish" dostonining to'liq

matni nashri va uning ming yillik yubileyi yuzasidan ma'lumot. "Alpomish" dostonida yurt birligi ifodasi. Dostonda mifologik dunyoqarash ildizlarining o'rni va ahamiyati. Dostonning badiiy xususiyatlari. Dostonning o'zbek xalq og'zaki ijodida tutgan o'rni va ahamiyati.

"Go'rug'li" turkumi dostonlari. Go'rug'li turkumining shakllanish tarixi. Mazkur turkumda o'zbek xalqining milliy mentaliteti ifodasi. "Go'rug'lining tug'ilishi", "Ravshan" dostonlari tahlili. Go'ro'g'li xalq orzu qilgan milliy qahramon sifatida. "Kuntug'mish" dostoni. "Kuntug'mish" dostonida sevgi va vafo ifodasi.

Bolalar folklori. Bolalar folklori xalq og'zaki ijodining muhim tarkibiy qismi sifatida. Bolalar folklorining o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumot (hajm, syujet chizig'i, janrlar). Tez aytishning janr xususiyatlari. Bolalar ertaklari. Bolalar qo'shiqlari.

O'zbek marosim folklori. Marosim va marosim folklori tushunchalari izohi. Marosim folklorining tarixiy asoslari (Sust xotin, Choy momo, Loy tutish, Shoh moylar).

"O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI" fani bo'yicha:

Badiiy matn tushunchasi. Matn poetikasi. Poetikaning nazariy masalalari. Klassik tur va janrlar. Klassik janrlarning o'tmishda qo'llanilgan atamalari. O'tmish adabiyotshunosligi. Uning metod va yondashuvlari. Hozirgi adabiyotshunoslik, uning metod va yo'nalishlari. Hozirgi zamon adabiyotshunosligida klassik matnlarni o'rganish bilan bog'liq holda yuzaga kelgan nazariy masalalar.

O'tmishda yaratilgan badiiy asarlarni tarixiy davrlar nuqtai nazaridan o'rganish. Adabiyot tarixini davrlashtirish masalasi.

Xalq og'zaki ijodining eng eski namunalari, ularning manbalari. Xalq og'zaki ijodi janrlari va ularning nazariy masalalari.

Yozma adabiyot va uning tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liq masalalar. Yozma adabiyotning klassik bosqichi. Klassik adabiyot tushunchasi. Uning muhim belgilari.

Mumtoz adabiyotni ilk manbalar, asar qo'lyozmalari, tarixiy asarlar, tazkiralar, o'sha davrlarda yashab o'tgan olim va shoirlarning ma'lumotlari asosida o'rganish.

Mumtoz matnlarni janr xususiyatlariga ko'ra o'rganish.

Devon tuzish an'analarini.

Sharq adabiyotida xamsachilik an'analarini.

Falsafiy dostonlar. Qahramonlik dostonlari.

Adabiyot tarixida tazkirachilik an'analarini.

Tarixiy-badiiy asarlar.

Epistolyar janr va uning badiiy o'zgachaligi.

Klassik adabiyotda an'anaviylik va uning nazariy masalalari.

"ZAMONAVIY O'ZBEK ADABIYOTI VA ADABIY JARAYON"

fani bo'yicha

Zamonaviy o'zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari. XX asr boshlari o'zbek adabiyotidagi o'zgarishlar. Zamonaviy o'zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari: dunyoviy mazmuning yetakchi o'ringa chiqishi. Realistik metodning shakllanishi. Yevropa adabiyotiga xos janr va shakllarning maydonga kelishi. Tilning zamonaviylashuvi.

Zamonaviy o'zbek adabiyoti taraqqiyotining asosiy bosqichlari. XX asr o'zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari. Bu davr adabiyotidagi ifoda usullarining yangiligi. Yangi o'zbek adabiyoti namoyondalari ijodining yetakchi tamoyillari. Adabiyot tarixini davrlashtirish tamoyillari.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida realizm bosqichlari. Realizmning ilk bosqichi. Yangi tipdagi poetik obrazlar – ramzlarning davr fojeasini tasvirlashdagi ahamiyati. Adabiyotda mafkuraviy kurash. 30-yillar davrining ijtimoiy-siyosiy va madaniy manzarasi. Shaxsga sig'inish illatlari va adabiyot. Adabiy siyosat va badiiylilik muammolari.

XX asr o'zbek adabiyoti – milliy adabiyot tarixida yangi bosqich. Ijtimoiy-tarixiy muhit. Jadidizm ta'limoti va adabiyotining yuzaga kelishi. Milliy adabiyotga jahon adabiyotining ta'siri. Proza va dramaturgiyaning vujudga kelishi. Behbudiyning hayoti va ijodi. Behbudi – birinchi o'zbek dramaturgi. "Padarush"ning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Undagi obrazlar. "Radarkush"ning o'zbek dramaturgiyasidagi o'rni.

Abdulla Avloniyning hayoti va ijodi. Avloniy she'riyati. Avloniy tuzgan darsliklar. "Turkiy guliston yoxud axloq".

Abdurauf Fitratning hayoti va ijodi. Fitrat – shoir. Birinchi o'zbek tragediyasi. "Abulfayzzon"da tarixiy haqiqat va badiiy to'qima. Fitrat dramalarida millatning tarixiy kechmishi mavzui. Fitrat dramalarida milliy mstiqlol g'oyasi. Hind mavzuidagi ikki drama. Fitrat – dramaturg va adabiyotshunos olim.

Cho'lponning hayoti va ijodi. Cho'lpon she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Cho'lpon lirkasida ramziylik. "Kecha va kunduz" – o'zbek romanchiligining yutug'i. Unda milliy istiqlol g'oyasining ifodalananishi. Miryoqub obrazi.

Hamzaning hayoti va ijodi. "Devoni Nihoniy". Hamza she'riyatida jadidizm g'oyalari. Hamza – dramaturg. Hamzaning nasriy asarlari. O'zbek she'riyatida barmoq va sarbastning joriylanishi.

Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodi. Ilk o'zbek romanlari. "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon"ning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. "Obid ketmon" – zamonaviy mavzudagi asar. Abdulla Qodiriy hajviyoti. Abdulla Qodiriyning xarakter yaratish mahorati. Qodiriy romanlari tili va badiiyati.

Sadriddin Ayniyning hayoti va ijodi. Ayniy – prozaik. "Esdaliklar" – badiiy memuarning o'ziga xos namunasi. "Sudxo'rning o'limi" qissasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Sadriddin Ayniy – adabiyotshunos olim.

G'afur G'ulomning hayoti va ijodi. G'afur G'ulom – zabardast shoir. G'afur G'ulomning nasriy asarlari. "Shum bola" qissasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. G'afur G'ulom publitsistikasi. G'afur G'ulom tarjimalari.

Oybekning hayoti va ijodi. Oybek lirikasi. Oybek dostonlari. “Qutlug’ qon” – Oybekning ilk romani. Oybek – navoiyshunos. “Navoiy” romanining yaratilishi. Roman tahlili. Navoiy obrazi. “Bolalik” – avtobiografik qissa. Oybek ijodida xorij mavzusi.

Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodi. Shayxzoda lirkasining g’oyaviy-badiiy xususiyatlari. Shayxzoda – dramaturg. “Mirzo Ulug’bek” fojiasi. Ulug’bek obrazi. Fojianing badiiy xususiyatlari. Shayxzoda – adabiyotshunos olim.

Abdulla Qahhorning hayoti va ijodi. Abdulla Qahhor – mohir hikoyanavis. “Sarob” – ruhiy-psixologik roman. Unda milliy ziyolilar fojiasining ifodalanishi. Abdulla Qahhorning badiiy mahorati. “Sinchalak” qissasining g’oyaviy badiiy xususiyatlari. Unda davr manzaralarining ifoda etilishi. Saida – ideal obraz. Abdulla Qahhor – dramaturg.

Hamid Olimjonning hayoti va ijodi. Hamid Olimjon she’riyatining g’oyaviy-badiiy xususiyatlari. “Muqanna” dramasi. Hamid Olimjon – adabiyotshunos va adabiy tanqidchi.

Zulfiyaning hayoti va ijodi. Zulfiya she’riyatining o’ziga xos xususiyatlari. Zulfiya ijodida hijron motivi. Zulfiya dostonlari.

Erkin Vohidovning hayoti va ijodi. Erkin Vohidov she’riyatining g’oyaviy-badiiy xususmyailari. “Yoshlik devoni”. Erkin Vohidov dostonlari. “Nido” – urushga qarshi poetik aybnama. “Ruhlar isyonii” dostonining g’oyaviy-badiiy xususiyatlari. Nazrul Islom obrazi. “Oltin devor” – adib dramaturgiyasining yorqin namunasi.

Abdulla Oripovning hayoti va ijodi. Abdulla Oripov she’riyatining g’oyaviy-badiiy xususiyatlari. O’zbek she’riyatini ichdan yangilash uchun kurash. “Hakim va ajal” dostoni. “Jannatga yo’l” – dramatik doston. Abdulla Oripovning Istiqlol davri ijodi. O’zbek adabiyotida “Arba’in” an’analari. “Sohibqiron” dramasi.

Rauf Parfi ijodi. Shoир ijodida milliy birlik qayg’usining ifoda topishi. **O’zbek she’riyatida badiiy tafakkurning yangilanishi.** Omon Matjon, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron, Usmon Azim ijodi.

O’tkir Hoshimovning qissa va romanlari. Shoирning hayot yo’li, daslabki hikoya va qissalari. O’.Hoshimov hikoyalarida ma’naviy ruhiy olam talqinining o’ziga xosligi. Romantik ruhning ustuvorligi. “Urushning so’nggi qurbanii” hikoyasida fojeaviylik. Ona obrazining badiiy-estetik qimmati.

Shukur Xolmirzayev nasri. Yozuvchining tarjimai holi va ijodining ilk bosqichi. Sh.Xolmirzayev hikoyalarining o’ziga xosligi. Adibning qissa va romanlari. Sh.Xolmirzayev qissalarida sevgi-muhabbat, tabiat go’zalliklarini tasvirlash va ardoqlash asosiy mavzuga aylana borishi. Sh.Xolmirzayev romanlarida davr va shaxs fojeasi talqini. “So’nggi bekat” romanida hayot va o’lim; olam va odam, davr va shaxs munosabatlarining o’ziga xos talqini. “Dinozavr” romanida ijodkor kontseptsiyasining o’ziga xosligi. Ramziy va fantastik tasvirning realizm bilan uyg’unlashuvi – tasvirning o’ziga xosligi sifatida.

Nasr poetikasi masalalari. Murod Muhammad Do’st hayoti va ijodi. “Lolazor” – yangi qurilishdagi badiiy nasr namunasi sifatida. Tog’ay Murod ijodida milliy va mahalliy kolorit. Xarakter yaratishdagi o’ziga xosliklar.

“Yulduzlar mangu yonadi”, “Ot kishnagan oqshom”da kabi qissalarida inson qalbi fojealarining haqqoniy tasviri. Erkin A’zam qissalari.

Poetik ramzlar va lirkahramonning yangilanishi. Halima Xudoyberdiyeva ijodi, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron, Usmon Azim, Oydin Hojiyeva.

Istiqlol davri o’zbek adabiyoti. She’riyatdagi shakl va mazmun evrilishlari. Sirojiddin Sayyid, Eshqobil Shukur, Muhammad Yusuf ijodida Vatan mavzusi. Nasr: Nurullo Otaxon, Nazar Eshonqul, Ne’mat Arslon, Isajon Sulton, Shodiqul Hamro, Ulug’bek Hamdam, Luqmon Bo’rixon. Dramaturgiya: Sharof Boshbekov, Usmon Azim, Erkin A’zam, Qo’chqor Norqobil dramalari.

Hozirgi o’zbek nasri. Tog’ay Murod ijodi. Tog’ay Murod qissalari – nasrdagi qo’shiqlar. Tog’ay Murod romanlari. Millat qayg’usi. Murod Muhammad Do’st ijodi. Galatepa qissalari. “Lolazor” romani. Xayriddin Sultonov ijodi Xayriddin Sultonov hikoyalarida milliy psixologiya. “Saodat sohili” qissasining g’oyaviy-badiiy xususiyatlari. “Boburiynoma” asarining janriy xususiyatlari.

Zamonaviy dramaturgiya. Sharof Boshbekov ijodi. “Temir xotin”ning janriy xususiyatlari. Usmon Azim dramalari.

Hozirgi adabiy jarayon. Zamonaviy nasr, she’riyat va dramaturgianing o’ziga xos xususiyatlari. Hozirgi o’zbek romanchiligi. M.Alining “Ulug’ saltanat” tetralogiyasi, Omon Muxtor romanlari, U.Hamdam, I.Sulton va boshqa adiblar ijodi.

O’zbek adabiy tanqidni tarixi. Adabiy tanqidning janriy tarkibi. Munaqqid va adabiy jarayon. Fitrat, Ayn, Izzat Sulton, H.Yoqubov, O.Sharafiddinov, M.Qo’shjonov, U.Normatov, I.Haqqulov, B.Nazarov, I.G’afurov va boshqa tanqidchilar ijodi. Adabiy tanqid va adabiy jarayon. Adabiy tanqid janrlari.

ADABIYOTLAR:

1. III.Мирзиёев. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги Фармони (“Халқ сўзи”, 2017 йил, 8 феврал).
3. Ш.Мирзиёев. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
4. Ш.Мирзиёев. Конун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари” тўғрисида (“Халқ сўзи” 2017 йил, 21 апрель).
6. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т., 2008.

7. Каримов И. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: 2010.
8. Arastu. Poetika. Ahloqi kabir. – Т.: Yangi asr avlodi, 2004.
9. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 1-20 жиллар. –Т.: Фан, 1987-2003.
10. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. –Т.: O’zbekiston, 1993.
11. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. –Т.: O’qituvchi, 2002.
12. Fitrat. Adabiyot qoidalari. –Т.: O’qituvchi ,1995.
13. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2000.
14. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1979.
15. Қуронов Д. Ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. –Т.: Академнашр, 2010.
16. Ulug`ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Т.: G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
17. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Т.: Akademnashr, 2018.
17. Шарқ мумтоз поэтикаси Ҳамидулла Болтабоев талқинида. – Тошкент: Ўзбекистон энциклопедияси, 2008.
18. Madayev O. O’zbek xalq og’zaki ijodi. – Т.: Mumtoz so’z, 2010.
19. Жўраев М. Фольклоршунослик асослари. – Т.: Фан, 2009.
20. Ўзбек фольклори очерклари. – Т.: Фан, 1988.
21. Ўзбек ҳалқ оғзаки ижоди хрестоматияси. Мирзаев Т. ва бошқалар. – Т.: Алоқачи, 2008.
22. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 1-20 жиллар. –Т. Фан, 1987-2003.
23. Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Movarounnahr - O’zbekiston NMIY, 2009.
24. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Т.: O’zbekiston, 2016.
25. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари / Мажмуа (1-жилд). Тузувчилар: Н.Раҳмонов, Ҳ.Болтабоев – Т.: Фан, 2003.
26. O’zbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua. (1-2 jild) Tuzuvchi: N.Rahmonov. – Т.: Fan, 2005, 2006.
27. Орзивеков Р. Ўзбек адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. –Самарқанд: 2005.
28. Vohidov R., Eshonqulov H. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Darslik. – Т.: O’z YU Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, 2006.
29. Адизова Й. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. – Т.: 2006.
30. Каримов Н, Мамажонов С, Назаров Б, Норматов У, Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. Олий ўқув юртлари учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1999.
31. Санжар Содик. Янги ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. –Т., “Университет”, 2005.
32. Rasulova U. Hozirgi adabiy jarayon. –Т.: Mumtoz so’z, 2014.

33. Фитрат. Чин севиши. –Т., F.Ғулом номидаги Адабиёти ва санъати нашриёти. 1997.
34. Абдулла Қодирий асарлари: Ўткан кунлар. Мехробдан чаён. Романлар. –Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1992.
35. Чўлпон. Асарлар. Уч жилдлик. –Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1994-1995.
36. Ойбек. Муқаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. –Т.: Фан, 1990-1995.
37. Faфур Ғулом. Асарлар. 12-томлик. –Т.: Фан, 1990-1995.
38. А.Қаҳҳор. Асарлар. Беш жилдлик. –Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987-1989.
39. Ҳамид Олимжон. Муқаммал асарлар тўплами. Беш жилдлик. –Т.: Фан, 1975-1994.
40. Мақсуд Шайхзода. Асарлар. 6 томлик. –Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1969-1974.
41. Миртемир. Асарлар. Тўрт жилдлик. –Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1980-1983.
45. Зулфия. Асарлар. Уч жилдлик. –Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1983-1986.
46. Асқад Мухтор. Асарлар. Тўрт томлик. –Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1980-1983.
47. Сайд Ахмад асарлари: Сайланма. Уч томлик. –Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980-1981.
48. Одил Ёқубов асарлари: Сайланма. Уч томлик. –Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985-1987.
49. Пиримкул Қодиров асарлари: Сайланма. Уч жилдлик. –Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987-1988.
50. Эркин Вохидов асарлари: Сайланма. Икки томлик. –Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.
51. Абдулла Орипов. Тўлиқ асарлар тўплами. Тўрт жилдлик. –Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 2001.
52. Ўткир Ҳошимов. Сайланма. Икки жилдлик. –Т.: Шарқ, 1993.
53. Шукур Холмирзаев. Уч жилдлик. –Т.: Шарқ, 2003.
54. Рауф Парпи. Сабр дарахти. –Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.
55. Тоғай Мурод. От кишинаган оқшом. Қиссалар. –Т.: Шарқ, 1994.
56. Тоғай Мурод. Отамдан қолган далалар. Роман. –Т.: Шарқ, 1994.
57. Тоғай Мурод. Бу дунёда ўлиб бўлмайди. Роман. –Т.: Шарқ, 1997.
58. Шавкат Раҳмон. Сайланма. –Т.: Шарқ, 1997.
59. Усмон Азимов. Сайланма. –Т.: Шарқ, 1995.

Internet saytlari:

60. www.alishernavoiy.uz
61. www.ziyo-net.uz
62. www.literature.uz
63. www.kutubxona.uz

Baholash mezoni

2021/2022 o‘quv yili 5A120101 – Adabiyotshunoslik: o’zbek adabiyoti magistratura mutaxassisligiga kiruvchi abituriyentlar uchun mazkur dasturga asosan keltirilgan umumkasbiy fanlar bo‘yicha: jami - 50 ta savol TEST tuzib kiritiladi va ularning har bir berilgan to‘g‘ri javobiga 2.0 balldan beriladi, jami maksimal ball 100 ballni tashkil qiladi, test savollarini yechish uchun 90 daqqaq vaqt ajratiladi.

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan mutaxassislik fani imtihon natijalari bo‘yicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay`atiga natijalar e’lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o‘zining ballari haqida bo`lsa qabul qilinadi, boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.